
Navbatdagi sessiyada "Yo'l xaritalari" tasdiqlandi

Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi 51-sessiyasida tuman Kengashi deputatlari, tumandagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi.

□ Rishton tuman xokimi S.Solievning "tumanning 2022 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish" bo'yicha dastur ijrosi, kelgusidagi vazifalar to'g'risidagi hisoboti va 2023 yilga mo'ljallangan tuman "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash.

□ Rishton tumanida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar tomonidan 2022 yil davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobotlari va 2023 yilning 1-yarim yilligi uchun "Yo'l xarita" larini tasdiqlash.

□ Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha "Oqtomir" va "Yoshlik" MFY hokim yordamchilarini 2023 yil yanvar oyidagi faoliyati samaradorligi to'g'risida axborot.

□ Tuman IIB boshlig'i X.Toshpulatovning "tumanda jinoyatchilikka karshi kurashish, uni oldini olish, aholi xavfsizligini ta'minlash" borasida 2022 yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti.

□ Tumanda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha 2022 yilda belgilangan vazifalarni ijrosi hamda 2023 yilga mo'ljallangan «Yo'l xarita» ni tasdiqlash

□ Rishton tumanida 2022 yil davomida «jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar»ni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar natijalari hisoboti.

□ Rishton tuman mahalliy byudjetining 2023 yil boshida shakllantirilgan erkin qoldiq mablag'lari miqdori va ularni sarflanish yo'nalishlari to'g'risida axborot.

□ Kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan fuqarolarni (oilalarni) "Temir daftar" ro'yxatiga kiritish va muammolari hal bo'lgan fuqarolar (oilalar)ni ro'yxatdan chiqarish hamda "Mahalla" xayriya jamoat fondini tumandagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga tushgan mablag'larni tasarruf etish to'g'risida axborot

□ Boshqa masalalar:

Sessiya davomida muzokara uchun so'z olganlar kun tartibidagi masalalar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tishdi.

Sessiyada kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

2023-02-06 15:07:21